

Sh.Amil, A.G.Sabirdinov	
XX asr o'zbek lirikasi va Oybek she'riyati	6
N.P.Farmonov	
Realistik va psixologik tasvir: "Girdob" romani qahramonlari misolida	14
N.A.Abdullayeva	
Gender leksik birliklarining lingvomadaniy ko'rinishlari	18
A.Eshniyazova	
Muallif konsepsiyasining ilmiy-nazariy asoslari.....	22
Z.Q.Eshanova	
Istiqlol davri o'zbek she'riyatida xalq dostonlari sintezi	27
J.B.Sayidolimov, I.B.Xabibullayev	
"Qisasi rabg'uziy" ning struktur tuzilishi	33
I.B.Xabibullayev	
Badiiy adabiyotda oila mavzusining shakllanishi va rivoji	42
E.G'.Qurbonova	
Lutfiy lirikasida badiiy mazmun va irfoniy talqin uyg'unligi	47
U.S.Ochilov	
Stiven Kingning «It» va «Green mile» romanlarida magik realizmning badiiy talqini.....	52
G.M.Kirgizova	
Iqbol Mirzo she'rlarida band tizimlari	58
N.N.Sharipova	
Xamsanavislik an'anasi va unda Toshlijali Yahyobey "Gulshan ul-anvor" dostonining o'rni	63
S.A.Olimjonov	
"Uch og'ayni" romanida "yo'qotilgan avlod" tasviri	69
I.M.Jurayev, H.A.Jo'rayev	
"Temur tuzuklari" hamda "Boburnoma"da an'ana va vorisiylik.....	74

Sh.M.Iskandarova, K.T.Israilova	
Ijtimoiy tarmoqlar tilini lingvistik o'rganishning nazariy asoslari.....	79
Sh.Sh.Uralova	
Ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlarining suffikslar yordamida hosil bo'lishi va ularning so'z yasaliş modelları.....	83
I.F.Porubay, F.R.Nishanova	
Zamonaviy global jamiyat sharoitlarida lingvomadaniy birliklarning rivojlanish omillarining tahlili... 90	
M.S.Sayidazimova	
O'zbek va ingliz tillaridagi fe'ning bo'lishsizlik shaklini yasovchi ayrim vositalar	96
X.G'.Raximboyeva, M.G'.Matlatipova	
O'zbek tili iyerarxik korpusini yaratishda ma'lumotlar bazasini yig'ish, gaplarni annotatsiyalash va tokenlash jarayoni.....	100
Л.Мамедзаде	
Приемы рифмообразования в паремнологических единицах турецкого и азербайджанского языков.....	107
N.A.To'xtasinova	
Pretsedent nom, jumla va matnlarning mediamatn birliklari sifatidagi tadqiqi	113
Z.I.Akbarova	
Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan "Ahl" komponentli lug'aviy birliklarning nutq uslublari doirasida qo'llanilishi	118
Ё.М.Алмишева	
Из истории изучения религиозных терминов в отечественной терминологии	121



UO'K: 8.80.808.5

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OSHXONA ANJOMLARI NOMLARINING SUFFIKSLAR YORDAMIDA HOSIL BO'LISHI VA ULARNING SO'Z YASALISH MODELLARI**СУФФИКСАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ НАЗВАНИЙ КУХОННОЙ УТВАРИ И ИХ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ МОДЕЛИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ****SUFFIX FORMATION OF NAMES OF KITCHEN UTENSILS AND THEIR WORD-FORMATION MODELS IN ENGLISH AND UZBEK**Uralova Shaxlo Shuxratovna 

Tadqiqotchi

Annotatsiya

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlari leksik guruhining suffikslar yordamida shakllanish jarayonini batafsil o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotning dolzarbligi turli tillarning leksik tizimlarini, ayniqsa, til egalari hayotining madaniy va amaliy jihatlarini aks ettiruvchi terminologiya va maishiy lug'at sohasidagi chog'ishtirma o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortishi bilan bog'liq. Oshxona anjomlari kundalik hayotning ajralmas qismi bo'lib, so'z yasalish jarayoni tahlil qilish va chog'ishtirilayotgan tillar leksik tizimida universal va o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash uchun boy lingvistik material hisoblanadi. Maqolada ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlarining yasalishidagi asosiy suffiksli modellar aniqlandi va tavsiflandi, ularning semantik va funksional xususiyatlari belgilandi. Ilmiy ishda tipologik jihatdan har xil ingliz va o'zbek tillarida oshxona anjomlari nomlarining suffiksli so'z yasalishi tizimli qiyosiy tahlil qilindi. Birinchi marta qiyoslanayotgan har bir tilda ushbu leksik guruhga xos bo'lgan maxsus suffiksli modellar aniqlandi va tasniflandi, shuningdek kontrastiv jihatdan mahsuldorlik va semantik to'liqlilik darajasi aniqlandi, suffiksli oshxona anjomlari yasama nomlari bilan bog'liq ingliz va o'zbek tillari so'z yasalish tizimidagi o'xshash va farqli tomonlar ko'rib chiqilgan.

Аннотация

Данная статья посвящена детальному сопоставительному исследованию суффиксального словообразования лексической группы названий кухонной утвари в английском и узбекском языках. Актуальность исследования обусловлена возрастающим интересом к контрастивному изучению лексических систем различных языков, особенно в сфере терминологии и бытовой лексики, отражающей культурные и практические аспекты жизни носителей языка. Кухонная утварь, являясь неотъемлемой частью повседневной жизни, представляет собой богатый лингвистический материал для анализа словообразовательных процессов и выявления как универсальных, так и специфических черт в структуре лексики сопоставляемых языков. В ней выявлены и описаны основные суффиксальные модели образования названий кухонной утвари в английском и узбекском языках, определены их семантические и функциональные особенности. В научной работе проведен системный сопоставительный анализ суффиксального словообразования названий кухонной утвари в типологически различных английском и узбекском языках, впервые предпринимается попытка выявить и классифицировать специфические суффиксальные модели, характерные для данной лексической группы в каждом из языков, а также определить степень их продуктивности и семантическую наполненность в контрастивном аспекте, рассмотрены схожие и отличительные черты словообразовательной системы английского и узбекского языков, связанные с деривацией названий кухонных принадлежностей способом суффиксации.

Abstract

This article presents a detailed comparative study of suffixal derivation in the lexical group of kitchen utensil terms in English and Uzbek. The relevance of the research lies in the growing interest in the contrastive analysis of lexical systems, particularly in terminology and everyday vocabulary that reflect the cultural and practical aspects of speakers' lives. As an essential part of daily life, kitchen utensils offer rich linguistic material for analyzing word-formation processes and identifying both universal and language-specific features in vocabulary structure.

The study identifies and describes the main suffixal models for forming kitchen utensil terms in English and Uzbek, outlining their semantic and functional properties. A systematic comparative analysis is carried out between the two typologically different languages. This research is the first to identify and classify suffix models specific to this lexical group in each language and to assess their productivity and semantic completeness. The study also explores similarities and differences in suffixal derivation systems between English and Uzbek as they pertain to the formation of kitchen-related terminology..

Kalit soʻzlar: ingliz tili, oʻzbek tili, soʻz yasash, suffiks, yasama nomlar, soʻz yasash modellari, oshxona anjomlari nomlari, soʻz yasash xususiyatlari, mahsulli va kammahsul suffikslar.

Ключевые слова: английский язык, узбекский язык, словообразование, суффикс, образованные названия, модели словообразования, наименования кухонной утвари, особенности словообразования, продуктивные и непродуктивные суффиксы.

Key words: English language, Uzbek language, word formation, suffix, derived nouns, word-formation models, kitchen utensil terms, features of derivation, productive and non-productive suffixes.

KIRISH

Leksik birliklarning, jumladan ingliz va oʻzbek tillarida oshxona anjomlari nomlarni soʻz yasash xususiyatlarni har tomonlama tahlil qilish tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqotlarda ingliz va oʻzbek tillarida affiksatsiya /affixation, soʻz qoʻshish/compounding, konversiya/sonversion, qisqartirish/shortening, abbreviatsiya/abbreviation, aralash qisqartirish/clipping, blending (ikki soʻzning “yopishishi”)/blending, teskari soʻz yasash/back-formation kabi usullarda yasama soʻzlar hosil boʻlishi koʻrsatib oʻtilgan.

Qiyoslanayotgan har ikkala tilda qator oshxona anjomlari nomlari suffikslar yordamida hosil boʻlgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tilshunos O.I. Povargo ingliz tilida yangi derivatsiyaning ikki xil usulini farqlaydi: 1) soʻz yasash (bir soʻzning boshqa soʻzdan hosil boʻlishi); 2) soʻz qoʻshish, yaʼni soʻzning boshqa soʻzga qoʻshilishi orqali hosil boʻlishi. Soʻz yasashning quyidagi usullari mavjud: a) soʻzlarning talaffuzi va yozilishi hech qanday oʻzgarishsiz: *water – to water, skin – to skin*; b) urgʻuning oʻzgarishi orqali: *présent – présent, record – recórd*; v) tovushlarning almashuvi yordamida: *advise – advice, prove – proof, lose – loss, serve – service*; g) affiks (prefiks va suffiks)lar yordamida: *replace – replacement, develop – development, understand – misunderstand, apply – applicant* [5; S. 4].

Taniqli tilshunos A.Hojiev oʻzbek tilida soʻz yasashining asosiy usullari sifatida quyidagilarni qayd etadi: 1) semantik (yoki leksik-semantik), 2) fonetik, 3) sintaktik-leksik, 4) affiksatsiya, 5) kompozitsiya, 6) abbreviatsiya [10; B. 29]. “Oʻzbek tili grammatikasi” mualliflarining taʼkidlashicha, “soʻz yasash: 1. Grammatik soʻz yasash (affiks yordami bilan yasash – affiksatsiya, soʻz qoʻshish yoʻli bilan yasash – kompozitsiya, soʻzni bir leksik-grammatik kategoriyadan boshqasiga, boshqa turkumga koʻchirish – kategorial koʻchish yoʻli bilan yasash – konversiya). 2. Leksik-semantik soʻz yasash (maʼno oʻzgarishi orqali yangi soʻzning hosil boʻlishi). 3. Fonetik soʻz yasash (fonetik vositalar — har xil fonetik oʻzgarishlar yordami bilan yasash) tusida boʻladi” [9; B. 22]. B.Umurqulov soʻz yasashining asosan 1) morfologik va 2) sintaktik usullari mavjudligini taʼkidlaydi. Olimning fikricha, soʻz yasovchi qoʻshimchalar qoʻshilishi orqali soʻz yasashi morfologik usul (**ishchi, gulli, suvchi, chiroyli, bilimdon** kabi), ikki yoki undan ortiq soʻzlarning oʻzaro birikishidan tashkil topgan soʻzlar sintaktik usul bilan yasalishdir. Sintaktik usul bilan qoʻshma, murakkab va juft soʻzlar yasaladi (**gultoʻjixoʻroz, muzqaymoq, jigar rang, shu yer, yaxshiyomon**) [8; B. 61]. Maqolada quyidagi **tadqiqot metodlaridan** foydalanildi: reprezentativ tanlash metodi, komponent tahlil metodi, soʻz yasash tahlili metodi, qiyosiy tahlil metodi va statistik tahlil metodi.

NATIJA VA MUHOKAMA

P.M. Karashukning fikricha, «instrument maʼnosiga ega boʻlgan -er suffiksi qurilmalar, asboblardan, anjomlar va hokazolarni bildiruvchi otlarni hosil qilish uchun ishlatiladi. Ular feʼl oʻzagida koʻrsatilgan harakatni bajarish uchun ishlatiladi. Masalan, to sow “sochmoq, ekmoq” (taqqoslang: sower “seyalka” (gʻalla ekish uchun ishlatiladigan moslama); to atomize “kukunlashtirmoq, maydalamoq” (taqqoslang: atomizer “pulverizator (suyuq yoki kukun moddalarni purkaydigan, changitib sepadigan asbob), forsunka”; to rectify “(tokni) toʻgʻirlamoq” (taqqoslang: rectifier “toʻgʻirlovchi (oʻzgaruvchan tokni oʻzgarmas tokka aylantiradigan asbob)”; to fan “esmoq, ufurmoq, tarqalmoq” (taqqoslang: fanner “shamol mashina (don sovuradigan mashina)”; to scutch “titkilamoq” (taqqoslang: scutcher “zigʻir titkilovchi mashina”) (tarjima oʻzimizniki – Sh.Sh.)» [3; S. 42].

-er suffiksi

Ingliz tilida yasama otlarning yasashida -er suffiksi eng xarakterli affikslardan biri hisoblanadi. U mahsulli suffiksdur. Uning yordamida har xil maʼnodagi turli kategoriyaga mansub soʻzlar yasaladi.

-er suffiksli oshxona anjomlari nomlarining yasash modellari

TILSHUNOSLIK

Ingliz tilida *-er* suffiksli oshxona anjomlari nomlarining soni 90 tadan ortiq. Bu soʻzlar yasalanishining ustuvor modeli (qolipi) – “**fe’l + -er suffiksi = ot (v + -er = n)**”. Bu model orqali hosil boʻlgan yasama soʻzlar soʻz yasovchi oʻzakdan farqlanadi. Masalan, *chop (chopmoq) + -er suffiksi = chopper (qassob pichogʻi, goʻsht maydalagich)* [6]; *serve (xizmat qilmoq (koʻrsatmoq) + -er suffiksi = server (servis qoshigʻi, vilkasi, kurakcha)*; *decant (biridan ikkinchisiga quymoq) + -er suffiksi = decanter (grafin)*; *sift (elamoq, elak (gʻalvir)dan oʻtkazmoq) + -er suffiksi = sifter (elak, gʻalvir, filtr)*; *tumble (agʻdarmoq, toʻntarmoq) + -er suffiksi = tumbler (oyoqsiz qadah, jom)*; *fry (qovurmoq) + -er suffiksi = fryer (qovurish uchun idish, tova)* va boshqalar.

Oshxona anjomlari nomlari “**ot + er suffiksi = ot (n + -er = n)**” soʻz yasalanish modeli boʻyicha ham hosil boʻladi. Masalan, *porridge (kasha) + -er suffiksi = porringer (shoʻrva, boʻtqa, bolalar ovqatlari uchun kosa)*; *sal (tuz) + -er suffiksi = saler (tuzdon)*; *juice (sok) + -er suffiksi = juicer (sharbatsiqqich)*; *pit (danak) + -er suffiksi = pitter (danakni chiqarib oluvchi qurilma)*; *compote (kompot) + -er suffiksi = compotier (kompot uchun idish)*, *brand (qizdirilgan temir) + -er suffiksi = brander (rashper – goʻsht, baliq kabilarni kabob qilishda ishlatiladigan panjara)* va boshqalar.

Ingliz tilida bu turkumga kiruvchi nomlar “**sifat + -er suffiksi = ot (adj + -er = n)**” modeli boʻyicha ham yasalanishi mumkin: *platt (yassi, yalpoq) + -er suffiksi = platter (1) yogʻoch likopcha; 2) katta yalpoq tovoq*.

Shunday yasama nomlar borki, ularning hosil boʻlishida birdaniga ikkita, yaʼni “**fe’l + -er suffiksi = ot (v + -er suffiksi = n)**” va “**ot + -er suffiksi = ot (n + -er suffiksi = n)**” modellari qoʻllanilgan: *ot: sauce (sous) va fe’l: sauce (ovqatga sous solmoq) + -er suffiksi = saucer (sous uchun likopcha)*; *ot: scum (koʻpik) va fe’l: scum (koʻpikni olmoq) + -er suffiksi = scummer (koʻpikni olish uchun qoshiq)*; *ot: taste (taʼm) va fe’l: taste (taʼmini totmoq) + -er suffiksi = taster (vinoni totib koʻrish uchun kumush qoshiqcha)*.

-or suffiksi

Ingliz tilida *-yer* suffiksinining varianti *-or* suffiksi hisoblanadi. Oshxona anjomlarining *-or* suffiksli yasama otlari *-yer* suffiksli nomlar kabi “aniq ishni bajarish uchun foydalaniladigan asbob yoki idish” maʼnosini anglatadi. Quyidagi soʻzlar “**fe’l + -or suffiksi = ot (v + -or = n)**” modeliga mos ravishda yasalgan: *cast (tashlamoq) + -or suffiksi = castor (tuz, murch, shakar kabi mahsulotlarni saqlash ishlatiladigan teshik qopqoqli idish)* va boshqalar. Baʼzi soʻzlar “**ot + -or suffiksi = ot (n + -or suffiksi = n)**” modeli boʻyicha yasalgan: *carbonade (karbonad gazi) + -or suffiksi = carbonator (sifon (suyuqlikni korbanat angidrid gazi bilan toʻydirish uchun ishlatiladigan moslama)*; *ferment (achitqi) + -or suffiksi = fermentor (fermentyor (achitish uchun idish))*.

-ier suffiksi

Ingliz tilida *-yer* suffiksining yana bir varianti *-ier* affiksdir. Oshxona anjomlari nomlari orasida ikkita soʻz *-ier* suffiksi yordamida hosil boʻlgan. Bu yasama soʻzlarda “**ot + -ier suffiksi = ot (n + -ier suffiksi = n)**” modeli kuzatiladi: *compote (kompot) + -ier suffiksi = compotier (kompot solinadigan idish)*; *braze (koʻmir) + -ier suffiksi = brazier (manqal)*.

Shunday qilib, *-er*, *-or* va *-ier* suffikslari fe’l va ot soʻz turkumidagi soʻzlarga qoʻshilib, oshxona anjomlari yasama nomlarini hosil qilishda faol ishtirok etadi.

-ing suffiksi

Ingliz tili oshxona nomlarida *-ing* suffiksi qoʻshma otlarning birinchi komponentida kuzatiladi. Mazkur suffiksli nomlarning barchasi “**fe’l + -ing suffiksi = ot (v + -ing suffiksi = n)**”: *to mix (aralash-tirmoq) + -ing suffiksi = mixing bowl (aralash-tirish uchun kosa)*, *to whisk (koʻpirtirmoq, koʻpchitmoq) + -ing suffiksi = whisking whisk (koʻpirtirish uchun chilchoʻp)*, *to chop (chopmoq, kesmoq) + -ing suffiksi = chopping board (chopish yoki kesish uchun doska)*, *to grate (qirmoq) + -ing suffiksi = grating plane (qirgʻich)*, *to bake (pishirmoq, yopmoq) + -ing suffiksi = baking tray (tunuka tova)*, *to slice (toʻgʻramoq) + -ing = slicing knife (toʻgʻrash uchun pichoq)*, *to serve (uzatmoq, xizmat koʻrsatmoq) + -ing suffiksi = serving spoon (choʻmich, serviz qoshigʻi)*, *to pour (quymoq) + -ing suffiksi = pouring jug (koʻza)*, *to chafe (yangi fazaga oʻtish) + -ing suffiksi = chafing-dish (isitish funksiyasiga ega kastyul)*, *baki (non pishirmoq) + -ing suffiksi = baking dish (duxovkada pishirishga moʻljallangan idish)*, *pickl (tuzlamoq) + -ing suffiksi = fish-pickling dish (tuzlangan baliq uchun idish)*, *roll (dumalatmoq) + -ing suffiksi = rolling-pin (oʻqloq)*, *roast (qovurmoq) + -ing suffiksi = roasting tin (tunuka tova)*, *roll (dumalatmoq) + -ing suffiksi = rolling*

dough (xamir o'qlog'i), *bake* (pishirmoq (tovada) + *-ing* suffiksi = **baking sheet** (tunika tova), *separate* (ajratmoq) + *-ing* suffiksi = **separating sieve** (saralaydigan g'alvir).

Ko'rinib turibdiki, oshxona anjomlari nomlaridagi *-ing* suffiksi predmetning qanday funksiyani bajarishiga ishora qiladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ba'zi holatlarda mutaxassislar suffikslarni o'zakdan ajratib olishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklar eskirgan, shevaga xos yoki boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlarda kuzatiladi. Bundan suffikslar guruhiga *-el*, *-le*, *-kin*, *-yen*, *-ar*, *-ard* va *-ite* ingliz suffikslari kiradi.

-el suffiksi

Bir marta *-el* suffiksli yasama so'zlarda "ot + *-el* suffiksi = ot (n + *-ing* = n)" modeli kuzatiladi: *round* (aylana) + *-el* suffiksi = *roundel* (aylana yog'och patnis). Ingliz tilida "dumaloq, sharsimon" ma'nosidagi "Round" sifati ham mavjud.

Quyidagi so'zlarda *-el* suffiksini o'zakdan ajratib tahlil qilish qiyinchiliklar tug'diradi: *peel* – 1) ot: *novvoy kurakchasi*; *ushlagich* (temir ayri); 2) fe'l: *archmoq*. So'z qadimiy olmon tilida "terisini shilmoq" ma'nosidagi leksemaga borib taqaladi. *Trowel* – 1) ot: *pazandalik* (*oshpazlik*) *kurakchasi*. U qadimiy fransuz tilidagi "yer kavlash" ma'nosidagi so'zga borib taqaladi. *Costrel* – 1) ot (eskirgan, shevaga xos so'z): *sopol* yoki *teridan tayyorlangan katta butil*; kamarga osib qo'yish uchun quloqli flaga (suvdon); sharob uchun butilka. Qadimiy fransuz tilidagi "flaga" ma'nosidagi so'zdan kelib chiqqan.

-le suffiksi

Ladle – 1) ot: *cho'mich*, *yog'log'i*; 2) fe'l: *botirib olmoq*, *suzib olmoq*. **Ehtimol**, "to lade" (botirib olmoq) fe'li bilan bog'liq. *Paddle* – 1) ot: *baydarka eshkagiga o'xshash aralashtirish uchun kurakcha*; 2) fe'l: *eshkak eshmoq*. "to paddle" (eshkak eshmoq, aralashtirmoq) fe'li bilan bog'liq. *Spurtle* – 1) ot: suli nonlarini tayyorlash uchun kurakcha; 2) ot: Shotlandiyada qo'llanigan bo'tqani aralashtirish uchun yog'och tayoqcha (eskirgan so'z); 3) fe'l: *chayqatib to'kmoq*, *to'kib tashlamoq*, *batamom oqib ketmoq*, *sachratmoq*. "Spurtle" (sachratmoq) fe'li bilan bog'liq.

-kin suffiksi

Firkin – kichkina bochka. O'lchov birligiga ishora qiluvchi "vierde" (chorak, to'rt dan bir) ma'nosiga ega gollandcha so'zidan kelib chiqqan. *Kilderkin* – ot: suyuqlik, baliq va boshqa narsalar uchun bochka. "Kinderkin" (kichik bochka) ma'nosiga ega niderland so'zidan kelib chiqqan. Niderland tilida "kinder" (bola) o'zagiga *-kin* kichraytirish suffiksini qo'shish yordamida hosil bo'lgan. *Pipkin* –1) gil va metalldan tayyorlangan tuvak, kosa; 2) kichik yog'och cho'mich, satil. "Pip" (danak) o'zagiga *-kin* suffiksini qo'shish orqali hosil bo'lgan.

-yen suffiksi

Cruisken – suyuqlik saqlanadigan kichik idish. Shotland tilidan deb hisoblashadi, lekin etimologiyasi noma'lum. Shevaga xos so'z. *Harnen* – pirojniylar uchun taglik. Olimlar katta ehtimollik bilan qadimiy ingliz tilidagi "hærn" (miya) so'ziga bog'lashadi. *Paten* – prichashchenie marosimida non uchun yassi likopcha. Lotin tilidagi "patena" (yassi likopcha) so'zidan olingan.

-ar suffiksi

Mortar – hovoncha. Lotinchadagi "mortarium" (hovoncha) so'zidan kelib chiqadi. *Cellar* – butilkalar uchun yashik, quti. Lotin tilidagi "cellarium" (omborxon) so'zidan hosil bo'lgan.

-ard suffiksi

Tankard – baland pivo krujkasi. Niderland tilidagi "tank" (idish) so'ziga *-ard* suffiksini qo'shish orqali hosil bo'lgan. *Bombard* – spirtli ichimliklar uchun teridan tayyorlangan xumcha yoki butil. Fransuz tilidagi "bombarde" (zambarak) so'zidan kelib chiqqan.

-ite suffiksi

Marmite – kstryul, dekcha. Kelib chiqish qadimiy fransuz tilidagi "marmite" (tuvak) so'ziga borib taqaladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, *-el*, *-le*, *-kin*, *-yen*, *-ar*, *-ard* va *-ite* suffiksli ingliz oshxona anjomlari nomlari qadimiy o'zaklarga ega. Tilda bo'lgan o'zgarishlar, so'zlarning boshqa tillardan o'zlashtirilganligi tufayli ularning tarkibini aniqlashda qiyinchiliklar mavjud. Nomlarning yasalishi har doim ham ochiq-oydin ko'rinib turmaydi. Bularning barchasi derivatsion va etimologik tahlillarni amalga oshirishni qiyinlashtiradi.

-ister suffiksi

TILSHUNOSLIK

Ko'rsatilgan suffiks bir so'z tarkibida uchradi. So'z yasaliş qolipi "ot + -ister suffiksi = ot (n + -ister = n)": can (tunika banka) + ister suffiksi = canister (kanistr)

-ware suffiksi

Ingliz tilida "ware" so'zi ko'p funksiyali leksik birlikdir. U, birinchidan, "tovar" va "anjom" ma'nolariga ega bo'lgan ot so'z turkumiga kiruvchi mustaqil so'z, ikkinchidan, yangi yasama so'zlarni hosil qilishda ishtirok etuvchi suffiks sifatida qo'llaniladi. Demak u ham leksikologiya, ham derivatsiya bo'limlarida o'rganiladi. Masalan, *Hardware* (asbob, anjom, instrumentlar), *Software* (dasturiy ta'minot), *Houseware* (uy-ro'zg'or mollari). «Yesterday we bought various items in the shop» (Kecha biz magazindan har xil tovarlar sotib oldik) "ware" – mustaqil so'z. «Today we chose new kitchenware» (Bugun biz yangi idish tanladik) "-ware" – suffiks.

An'anaviy lug'atlar tomonidan kombinatsiyalangan shakllar sifatida qayd qilingan ko'plab boshqa morfemalar aniq maqomga ega. Ularga -aids, -red, -gate, -nomics, -something, **-ware** (biz tomonimizdan ajratib ko'rsatilmoqda – *Sh.Sh.*) birliklari kiradi. Yangi so'zlar lug'atlarida ularning ba'zilari «suffiks» belgisi orqali berilmoqda [4].

Qayd etilgan ingliz suffiksi ot kategoriyasiga mansub so'zlarga qo'shilib, yangi so'zlar yasaydi. Bu suffiks yordamida yasalgan so'zlar biror funksiyani bajaruvchi predmet yoki uning qaysi aniq materialdan yasalganligini ko'rsatadi. So'z yasaliş qolipi "ot + -ware suffiksi = ot (n + -ware = n)": *kitchen* (kuxnya (oshxona) + -ware suffiksi = **kitchenware** (oshxona jihozi); *dinner* (tushlik, kechki ovqat, banket) + -ware suffiksi = **dinnerware** (oshxona idishlari), *flat* (yassi, sayoz) + -ware suffiksi = **flatware** (yassi, sayoz idishlar, likopchalar), *silver* (kumush) + -ware suffiksi = **silverware** (kumush oshxona), *stone* (tosh) + -ware suffiksi = **stoneware** (keramik idishlar), *earthen* (loy, gil) + -ware suffiksi = **earthenware** (gildan yasalgan idishlar), *glass* (idish) + -ware suffiksi = **glassware** (shisha idishlar), *stem* (oyoqcha) + -ware suffiksi = **stemware** (oyoqchali oshxona idishlari (bokallar, qadahlar), *china* (chinni) + -ware suffiksi = **chinaware** (chinni idishlar),

O'zbekcha affiks *-gich* (variantlari: *-kich*, *-qich*, *-g'ich*) fe'l o'zagida belgilangan harakatni amalga oshirishuvchi uy-ro'zg'or buyumlari, asboblari, oshxona anjomlari va hokazolarni bildiruvchi otlarni hosil qilish uchun qo'llaniladi.

O'zbek tilida oshxona anjomlari nomlarining *-gich* affiksi yordamida hosil bo'lishidagi asosiy so'z yasaliş modeli "fe'l + -gich suffiksi -gich = ot (v + -gich = n). Masalan, *saqlamoq* + *-gich* suffiksi = **saqlagich** (biror narsa saqlanadigan idish); *purkamoq* + *-gich* suffiksi = **purkagich**; *ilmoq* + *-gich* suffiksi = **ilgich**; *aralash-tirmoq* + *-gich* suffiksi = **aralash-tirgich** (biror narsa aralash-tiradigan moslama); *suzmoq* + *-gich* suffiksi = **suzgich**; *tozalamoq* + *-gich* suffiksi = **tozalagich** (idishlarni tozalovchi moslama); *tushirmoq* + *suffiks -gich* = **tushirgich** (biror narsani tushirish, tushirib qo'yish uchun uchun xizmat qiladigan moslama; masalan, qozon tushirgich); *tish kovlamoq* + *-gich* suffiksi = **tishkovlagich**.

Yuqoridan aytganimizdek, *-gich* suffiksining variantlari *-kich*, *-qich* va *-g'ich* affikslaridir. Bu affikslar yordamida quyidagi ot kategoriyasiga mansub so'zlar hosil bo'lgan: *muzlatmoq* + *-kich* suffiksi = **muzlatkich** (xolodilnik), *sovitmoq* + *-kich* suffiksi = **sovitkich** (xolodilnik, sovutish uchun qo'llaniladigan qurilma), *chakichlamoq* (nonga chakich urmoq, chakich bosmoq) + *-kich* suffiksi = **chakich** (nonni chakishlash uchun dastali yog'och kallakka bir tekisda sim qoqib yoki parranda patlarini dastlab bog'lab yasalgan uy-ro'zg'or asbobi); *tutmoq* + *-qich* suffiksi = **tutqich**; *qismoq* + *-qich* suffiksi = **qisqich** (ombur; pinset), *yopmoq* + *-qich* suffiksi = **yopqich**; *yelpimoq* + *-g'ich* suffiksi = **yelpig'ich**, *qirmoq* + *-g'ich* suffiksi = **qirg'ich** (qovoq, qovunlarni maydalash va qirish uchun ishlatiladigan tishli qirralari bo'lgan maxsus metall qoshiq), *qistirmoq* + *-g'ich* suffiksi = **qistirg'ich**.

-don suffiksi

Olimlar *-don* affiksini fors-tojik tilidan kelib chiqqanligini va u biror narsani o'z ichida saqlaydigan idish nomini bildirishini ta'kidlashadi [7; B. 718]. A. Hojiev *-don* affiksini "deyarli mahsulsiz yasovchiga aylangan"ligini qayd etadi [11; B. 90]. O'zbek oshxona anjomlari nomlarining *-don* affiksi yordamida hosil bo'lishi "ot + -don suffiksi = ot (v + -don = n) so'z yasaliş modeliga mos keladi: *gul* + *-don* suffiksi = **guldon**, *kul* + *-don* suffiksi = **kuldon**, *sham* + *-don* suffiksi = **shamdon**, *murch* + *-don* suffiksi = **murchdon**, *non* + *-don* suffiksi = **nondon**, *olov* + *-don* suffiksi = **olovdon**, *otash* + *-don* suffiksi = **otashdon**, *sovun* + *-don* suffiksi = **sovundon**, *suv* + *-don* suffiksi = **suvdon**, *tuz* + *-don* suffiksi = **tuzdon**, *xilon* + *-don* suffiksi = **xilondon**, *choy* + *-don* suffiksi =

choydon, *sham* + *-don* suffiksi = **shamdon**, *shir* + *-don* suffiksi = **shirdon**, *yax* + *-don* suffiksi = **yaxdon**, *qand* + *-don* suffiksi = **qanddon**, *qoshiq* + *-don* suffiksi = **qoshiqdon**.

-cha suffiksi

Hozirgi o'zbek tilida *-cha* affiksi, ikki xil vazifada qo'llanadi: 1) ravish yasash uchun xizmat qiladi, masalan: *o'zbekcha*, *ruscha*, *qozoqcha* va boshqalar; 2) otlarning kichraytish-erkalash formalarini yasaydi, masalan: *kitobcha*, *qizcha*, *daftarcha* kabi [2; B. 10]. Kichraytirish ma'nosidagi oshxona anjomlari hajm jihatdan odatdagi o'lchamga qaraganda kichik ekanligini ko'rsatish maqsadida *-cha* affiksli nomlar yasaladi. Bu so'zlar "**ot + -cha suffiksi = ot (n + -cha = n)**" so'z yasalish modeli bo'yicha hosil bo'ladi: *bochka* + *-cha* suffiksi = **bochkacha**, *dum* + *-cha* suffiksi = **dumcha** (*shevaga* xos so'z: dastasiz, xumchasimon kichkina idish), *kosa* + *-cha* suffiksi = **kosacha**, *kuva* + *-cha* suffiksi = **kuvacha**, *kurak* + *-cha* suffiksi = **kurakcha** va boshqalar.

Fors tilidan kirgan "*dekcha*", "*do'lcha*", arab tilidan o'zlashtirilgan "*hovoncha*", o'zbek shevalarida uchraydigan "*lincha*", "*tanha*", shuningdek, "*xo'qacha*", "*taqsimcha*" so'zlari oxirida *-cha* uchrasada, biz bu nomlarni **-cha** affiksli nomlar sirasiga qo'shmadik. Chunki hozirgi o'zbek tilida keltirilgan so'zlarning so'z yasalish asosi topilmadi.

-lik suffiksi

O'zbek tilida *-lik* affiksi belgi, joy, narsa otlarni yasaydi [1; B. 41]. Bizning materiallarimizda *-lik* affiksli oshxona anjomlari nomlari "**ot + -lik suffiksi = ot (n + -lik = n)**" so'z yasalish qolipida yasalgan: *eng* + *-lik* suffiksi = **englik**, *tag* + *-lik* suffiksi = **taglik**.

-gak suffiksi

O'zbekcha *-gak* affiksli oshxona anjomlari nomlari "**fe'l + -gak suffiksi = ot (v + -gak = n)**" modeli asosida yasalgan: *ilmoq* + *-gak* suffiksi = **ilgak**, *tirkamoq* + *-gak* suffiksi = **tirgak**. Fors tilidan o'zlashtirilgan "*changak*" so'zining oxirida *-gak* bo'lagi joylashgan. Uni suffiks deb hisoblamadik, chunki چىنگک so'zi fors tilidan yaxlitligicha o'zlashtirilgan.

O'zbek tilining ba'zi suffikslari materiallarimizda bir martadan uchradi:

-sak suffiksi ("**ot + -sak suffiksi = ot (n + -sak = n)**"): *eng* + *-sak* suffiksi = **engsak**;

-choq suffiksi ("**ot + -sak suffiksi = ot (n + -sak = n)**"): *yorg'i* (*shevada*: *arra*) + *-choq* suffiksi = **yorg'uchoq** (don yanchish va un qilish uchun ishlatiladigan xonaki asbob; qo'l tegirmon);

-ak suffiksi ("**fe'l + -sak suffiksi = ot (v + -sak = n)**"): *elamoq* (*ela*) + *-ak* suffiksi = **elak**;

-gi suffiksi ("**fe'l + -sak suffiksi = ot (v + -sak = n)**"): *supurmoq* (*supur*) + *-gi* suffiksi = **supurgi**.

XULOSA

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qiyoslanayotgan ingliz va o'zbek tillarida suffikslar yordamida hosil bo'lgan oshxona anjomlari nomlari keng tarqalgan. Ingliz tilida bu tematik guruhdagi so'zlarning yasalishida *-er* (variantlari: *-or*, *-ier*), *-ing*, *-el*, *-le*, *-ware* suffikslari sermahsul affikslardir. Tahlil qilingan nomlar tarkibidagi *-kin*, *-en*, *-ar*, *-ard*, *-ite*, *-ister* suffikslari kammahsul affikslardir. O'zbek tili oshxona anjomlari nomlarining yasalishida *-gich* (variantlari: *-kich*, *-qich*, *-g'ich*), *-cha*, *-don* suffikslari ko'p uchrasa, *-gak*, *-sak*, *-choq*, *-ak*, *-gi* suffikslari kam uchraydi.

Ingliz va o'zbek tillarida ularning tipologik xususiyatlarini aks ettiruvchi so'z yasalishining o'ziga xos samarali modellari mavjud.

Ingliz tilida suffikslar yordamida hosil bo'lgan oshxona anjomlari nomlari quyidagi so'z yasalish modellariga mos keladi: "**fe'l + suffiks = ot (v + suffix = n)**", "**ot + suffiks = ot (n + suffix = n)**", "**sifat + suffiks = ot (adj + suffix = n)**". Inglizcha shunday yasama nomlar borki, ularning hosil bo'lishida birdaniga ikkita, ya'ni "**fe'l + suffiks = ot (v + suffix = n)**" va "**ot + suffiks = ot (n + suffix = n)**" modellari qo'llanilgan: ot: *sauce* (*sous*) va *fe'l*: *sauce* (*ovqatga sous solmoq*) + *-er* suffiksi = **saucer** (*sous uchun likopcha*). Suffiksli o'zbek oshxona anjomlari nomlari quyidagi modellar asosida hosil bo'lgan: "**fe'l + suffiks = ot (v + suffix = n)**", "**ot + suffiks = ot (v + suffix = n)**".

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алиев А., Назаров К. Ўзбек тили маълумотномаси. – Тошкент: «Фан», 1992. – 88 б.

2. Икромова Р. Ўзбек тилида отларнинг синтетик, аналитик ва функционал формалари. Масъул муҳаррир СССР Педагогика фанлари академиясининг мухбир аъзоси М.А. Асқарова. – Тошкент: Ўзбекистон ССР «Фан» нашриёти, 1985 – 120 б.

TILSHUNOSLIK

3. Карашук П.М. Словообразование английского языка. Учеб. пособие. – М.: Высшая школа, 1977. – 303 с.
4. Матвеева Д.С. Полисемантика аффиксального способа словообразования в современном английском языке //file:///D:/ Download/полисемантика-аффиксального-способа-словообразования-в-современном-английском-языке.pdf.
5. Поварго О.И. Словообразование в английском языке = Word-буилдинг ин Энглиш Лангуаге / О. И. Поварго, А.П. Рябкова. – Гродно: ГрГУ, 2008. – С.4 (Ҳаммаси:129 с)
6. Сўзлар маънолари қуйидаги манбадан олинган: <https://www.восабуларй.сом/>
7. Узбекско-русский словарь. – Тошкент: Главная редакция Узбекской Советской Энциклопеди, 1988.
8. Умурқулов Б. Ҳозирги ўзбек тили. – Термиз, 2012. – Б. 61. (Ҳаммаси: 147 б.)
9. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Морфология. – Тошкент: Фан, 1975. – Б.22. (Ҳаммаси: 609 б.)
10. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясашиши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – Б. 29. (Ҳаммаси: 110 б.)
11. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясашиши тизими / А. Ҳожиёв. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. –168 б.